

UZOQ MUDDATLI DAVOLANISHGA MUHTOJ BO'LGAN O'QUVCHILARGA ADABIYOT FANINI O'QITISH USULLARI

Alimova Nigora¹

Xakimova Nargiza²

"Mehrlı maktab" davlat ta'lim muassasasi

KEYWORDS

Uzoq muddatli davolanish, adabiyot fanini o'qitish, o'quv jarayonini moslashtirish, o'qishga bo'lgan qiziqish, qo'llab-quvvatlash, his-tuyg'ularni tushunish, o'quvchilarning ruhiy holati, ta'lim samaradorligi.

ABSTRACT

Ushbu maqola uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga adabiyot fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va samarali usullarini muhokama qiladi. Maqolada o'quv jarayonini moslashtirish, o'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish, o'quvchilarga qo'llab-quvvatlash va ularning his-tuyg'ularini tushunish kabi muhim jihatlarga e'tibor qaratiladi. Maqolada keltirilgan usullar o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirish va ularning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.16047508](https://doi.org/10.5281/zenodo.16047508)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga Adabiyot fanini o'qitishning asosiy maqsadi, ularning jismoniy va ruhiy holatlarini hisobga olgan holda, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bilimlarini boyitish, ijtimoiylashuvini rag'batlantirish va o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdir.

Quyida bu maqsadga erishish uchun Adabiyot fanini o'qitishning asosiy yo'nalishlarini batafsilroq ko'rib chiqamiz:

- o'quvchilarni badiiy so'zdan ta'sirlanish, uning jozibasini his etishga o'rgatish;
- milliy va jahon adabiyotining ijtimoiy hodisa sifatida rivojlanish tendensiyalari va qonuniyatlari haqida tasavvurlarni shakllantirish;
- milliy hamda jahon adabiyotining janr, mazmun, davr jihatdan rang-barang yetuk namunalari vositasida badiiy matnni tahlil qilish, asarning o'z talqinini (interpretatsiyasini) yaratish va asardan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirish;
- fikrlarini yozma va og'zaki tarzda, auditoriya va maqsadni hisobga olgan holda

¹ "Mehrlı maktab" davlat ta'lim muassasasi direktori

² "Mehrlı maktab" davlat ta'lim muassasasi umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim

ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish;

- o'zining va o'zgalarning fikr va tuyg'ularini anglaydigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan shaxsni shakllantirish.

O'quv dasturida belgilangan maqsadlardan kelib chiqib, adabiyot fanini o'qitish metodikasida o'quvchilarning faolligi, bilimni tayyor holda, passiv qabul qilmasligi, balki darsda ularga bilimni o'zlari hosil qilishlariga (yaratishlariga, kashf qilishlariga), badiiy matnning o'z talqinlarini (interpretatsiyalarini) yaratish orqali fanga oid kompetensiyalarni va hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga imkon yaratib berilishi asosiy tamoyil hisoblanadi.

Adabiyot o'quv dasturining modeli o'quvchilarning yoshini, bilim darajasini va o'quv maqsadlarini hisobga olgan holda, ularga adabiyot dunyosini kashf etish va adabiy asarlarni chuqurroq tushunishga yordam berishga qaratilgan bo'lishi kerak.

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilar uchun ta'lim jarayoni o'ziga xos qiyinchiliklarni o'z ichiga oladi. Ularning jismoniy va ruhiy holati, o'qishga bo'lgan qiziqishi, o'quv jarayoniga moslashishi va boshqa omillar ta'lim samaradorligiga ta'sir qiladi. Adabiyot fanini o'qitishda bu omillarni hisobga olish va o'quvchilarga qiziqarli va qulay muhit yaratish muhimdir.

O'quvchilarning jismoniy holatini hisobga olib, o'quv yuklamasini kamaytirish, o'qish va yozish mashqlarini qisqartirish, o'quv materiallarini qismlarga bo'lish kerak.

O'quvchilarning qiziqishlarini hisobga olib, ularga mos keladigan o'quv materiallarini tanlash kerak. Masalan, ularga sevimli janrlariga oid kitoblar, qisqa hikoyalar, she'rlar, o'quv dasturlari va o'yinlarni taklif qilish mumkin.

O'quvchilarga qulay va tinch muhit yaratish, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun o'quv xonasini bezash, o'quv materiallarini rang-barang qilish, o'quv jarayoniga musiqa qo'shish mumkin.

O'quvchilarning sevimli janrlarini aniqlash va ularga mos keladigan kitoblarni tanlash kerak. Masalan, agar ular fantastika janrini yaxshi ko'rsa, ularga fantastika janriga oid kitoblarni taklif qilish mumkin.

O'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish uchun audiokitoblar, elektron kitoblar va o'quv dasturlaridan foydalanish mumkin. Bu usullar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, ularning o'qish qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'quv jarayonini yanada qiziqarli qilishga yordam beradi.

O'quvchilarni o'qishga faol jalb qilish uchun o'yinlar va faoliyatlarni tashkil qilish mumkin. Masalan, o'qigan asarlar bo'yicha viktorinalar, rollarni o'ynash, chizmalar chizish, hikoyalar yozish va boshqa faoliyatlarni tashkil qilish mumkin. O'quvchilarning his-tuyg'ularini tushunish, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularga qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish kerak.

O'quvchilarning muvaffaqiyatlarini qayd etish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish va o'qishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishga yordam beradi.

O'quvchilarga ijobiy muhit yaratish, ularga o'zlarini qulay his qilishlari uchun yordam berish, ular bilan suhbatlashish, ularning muammolarini tushunish va ularga qo'llab-

quvvatlash kerak.

Ushbu usullar uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, ularning bilim darajasini yaxshilashga va ularning ruhiy holatini ko'tarishga yordam beradi.

Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga Adabiyot fanini o'qitishda boshqa fanlar bilan integratsiyasi juda muhim rol o'ynaydi. Bu ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bilimlarini chuqurlashtirish va o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Quyida Adabiyot fanini boshqa fanlar bilan integratsiyasi bo'yicha bir nechta misol keltirilgan:

TASVIRIY SAN'AT

- badiiy asardagi muayyan lavha, obrazlarni tasviriy san'at namunalari bilan bog'lab tahlil qila oladi;
- asar asosida ishlangan tasviriy san'at asarlarini tasvirleydi, ularning asar g'oyasini, asar syujetidagi voqea yoki obrazni (obrazlarni) ochib berilishidagi ahamiyatini tushuntira oladi;
- badiiy asarlarga atab va ularning muayyan g'oyalari asosida ishlangan tasviriy san'at namunalarni tahlil qila oladi.

INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANI

- taqdimotlar yarata oladi;
- turli platformalar orqali badiiy asarlarning media shakllari (audio, radiopostanovka, kino, multfilm) bilan ishlay oladi;
- internet manbalaridan qo'shimcha manbalar topa oladi.

MUSIQA

- she'rlarni muayyan ohang va ritmga solib o'qiy oladi;
- lirik asarlarni ijro eta oladi;
- ashula, qo'shiq, ariya shaklida ijro etilgan she'riy asarlarni tushuna oladi va tahlil qiladi.

TABIY FANLAR

- badiiy va adabiy asarlarda keltirilgan geografik joylar haqida ma'lumot topa oladi;
- ilmiy fakt va badiiy to'qimani ajrata oladi.

TARIX

- o'quvchilarga o'qigan asarlarining yozilgan davri haqida malumot berish siyosiy va madaniy jarayonlarning bogliqligini anglash
-
- adabiy asarlarni yozish davriga oid tarixiy hujjatlarni o'rganish, ularni adabiy asarlar bilan solishtirish va tahlil qilish.
- O'quvchilarga o'qigan asarlarining yozilgan davri haqida ma'lumot berish, shu davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy xususiyatlarini o'rganish.

Adabiyot fanini o'qitishda turli xil metodik yondashuvlar mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning adabiy asarlarni chuqur tushunishi, tahlil qilishi va o'zlashtirishiga

yordam beradi. Ya'ni, mutolaadan oldingi topshiriqlarning asosiy vazifasi asarni tushunishga yordam beradigan o'quvchidagi mavjud bilimlarni (shu jumladan, boshqa fanlarda olingan bilimlarni) va hayotiy tajribani (sxemalarni) faollashtirish, asarning asosiy g'oyasi (muammosi) va unga yondosh g'oyalar ustida fikr yuritishga undash hamda matn bilan ishlashga qiziqish (motivatsiya) uyg'otishdir.

Mutolaa davomida bajaraladigan topshiriqlardan asosiy maqsad o'quvchiga asar matnini tushunish va tahlil qilishga yordam berish, o'qish davomida o'quvchining fikrini yo'naltirib borishdan iboratdir. Bunda asardagi obrazlarning xatti-harakatlarini, xarakterlarini, bir-birlariga munosabatlarini, voqealarning sabab va oqibat zanjirini, asarning tili (leksikasi grammatikasi, uslubi), unda qo'llanilgan badiiy vositalarning ma'nosini tushunish, ularni tahlil qilish va baho berishga e'tibor qaratiladi.

Mutolaadan keyingi topshiriqlarda asosiy e'tibor asarni tahlil qilish, baho berish va o'quvchi hayoti bilan bog'lash (personalizatsiya)ga qaratiladi. Bu bosqichda tahlil qilishni osonlashtiruvchi yordamchi vositalar sifatida urli xil jadvallardan foydalanish mumkin. Bu bosqichda interfaolmetodlarda foydalanish ham uzoq muddatli davolanayotgan oquvchilar uchun samarali hisoblanadi. Bunday topshiriqlarda o'quvchilar guruh bo'lib ishlashadi va guruhning har bir a'zosi uchun muayyan topshiriqlar belgilanadi. Ularni bajarishda nafaqat adabiyot, balki boshqa fanlardan olingan bilim va ko'nikmalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday topshiriqlar o'quvchilarda tanqidiy va ijodiy fikrlash, muloqot, o'zgaralar bilan ishlash, vaqtni to'g'ri taqsimlash, liderlik singari muhim hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirishda yordam beradi.

Badiiy adabiyotga, san'atga yaqinlik sinfdagi mashg'ulotlar bilangina tugamasligi kerak. O'qituvchilar, imkon qadar, darslikdagi asarlarning sinfdan tashqarida, o'quvchilarning bo'sh vaqtlarini hisobga olib (bunda o'quvchilar so'g'ligini inobatga olgan holda, asarlarni elektron kitob orqali, yoki asar haqida ishlangan film yoki multfilm, hujjatli filmlar) o'qib chiqilishiga erishishiladi Gospital maktabning fan oqituvchisidan o'quvchilarning mustaqil o'qigan asarlari bo'yicha fikr-mulohazalarini eshitishga, muhokama qilishga guruhga yoki yakka tartibdagi mashg'ulotlar orqali vaqt ajratishlari tavsiya qilinadi.

Sinfdan tashqari o'qishni uyushtirishda o'qituvchi tashabbuskor bo'lmog'i, o'quvchilarning yoshiga munosib yangi chiqqan badiiy asarlar bilan tanishishni bolalarga tavsiya etishni unutmashligi darkor. Sinfdan tashqari o'qilgan yangi asarlar o'quvchilarni ijodkorlikka undaydi, bugungi voqelik tufayli tug'ilgan hayotiy savollarga javob topishga o'rgatadi

Dastur o'rta maktabda adabiyot o'qitishning dars shaklidan tashqari to'garak mashg'ulotlar, adabiy kechalar, adabiy bahslar, ijodiy uchrashuvlar, adabiy ko'rgazmalar, adabiy sayohatlar, kitobxonlar anjumani singari ish turlaridan ham foydalanish mumkinligini ko'zda tutadi.

Badiiy adabiyot xususiyatiga ko'ra: lirik, epik, dramatik turlarga bo'linadi.

Lirik tur haqida so'z yuritadigan bo'lsak, asosan his-tuyg'ular kechinmalar tasvirlanib, uning janrlari she'r, ga'zal, ruboy, qit'a, fard va boshqa lirik turlarni qamrab oladi.

Lirik asarlar o'quvchilarga his-tuygularini ifoda etish, she'riy tilni o'rganish va o'zlarining ichki dunyosini ochishga imkon beradi. Ular o'quvchilarning tasavvurini rivojlantiradi va ularga she'riyat orqali go'zallikni his qilishga yordam beradi.

Epik turda asosan voqealar bayon qilinadi bu janr o'z ichiga hikoya, qissa, roman va boshqa nasriy turlar kiradi.

Epik asarlar o'quvchilarga voqealarni tushunish, hikoyalarni aytib berish, asar qahramonlarini xarakterlarini tahlil qilish va o'zlarining fikrlarini ifoda etishga imkon beradi. Epik tur o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytiradi va ularga turli xil madaniyatlar va tarixlar haqida ma'lumot beradi.

Dramatik tur asosan harakat tasvirlanadi bunday asarlar sahnada ijro etishga mo'ljallanib she'riy, nasriy shaklda yoziladi.

Gospital ta'limning adabiyot darslarida dramatik asarlarni o'rgatish o'quvchilarga dialoglarni ifodali o'qish, asar qahramonlarini jonlantirish va o'zlarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon beradi. Bu adabiy tur orqali o'quvchilarning sahna san'atini tushunish imkonini oshiradi va ularga turli xil hayotda uchraydigan ijtimoiy muammolarni tahlil qilishga yordam beradi.

Umuman olganda, badiiy adabiyotning lirik, epik va dramatik turlari o'quvchilarning nutqini rivojlantirish uchun muhim vositalardir. Adabiyotning yuqorida sanab o'tilgan, darsliklarda o'rganiladigan bu turlari o'quvchilarning fikrlash, gapirish, yozish va o'qish qobiliyatlarini yaxshilashga, his-tuyg'ularini ifoda etish, tasavvurini kengaytirish va o'zlarining ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Adabiyot darslarida metodlarni tashkil qilish uzoq muddat davolanayotgan o'quvchilarning sog'ligini inobatga olgan holda tanlanadi. Quyida ana shunday ba'zi usullardan namunalar keltirilgan:

“Davom ettir”-metodi orqali davolanish sabab xotirasida pasayish kuzatilgan o'quvchilar uchun qo'llash yaxshi natija beradi. Aytaylik 5-sinf adabiyot darsligida berilgan Abdulla Oripovning “Men nechun sevaman O'zbekistonni? sherini uyga vazifa sifatida yod olish berilganda, o'quvchilarga avvalo o'qituvchi boshlab beradi va har bir oquvchi bir qatordan davom ettirishga harakat qilib ko'rishadi, yoki she'r matnining har bir qatori kesilib, aralashtirib tashlanadi va oquvchilardan she'rni qatorlarini to'g'ri variantini tiklash talab qilinadi.

“Qahramonlarga maktub”- metodi Gospital ta'lim o'quvchilarini baholashning eng samarali, ijodiy va qiziqarli usulidir. Bu metodni qo'llashni afzalliklari shundan iboratki, o'1 o'qigan asarlarini chuqur tushunish asar qahramonlarining xarakterlarini tahlil qilish bilan birgalikda, o'z fikrlarini erkin bayon etish, ularga nisbatan (ijobiy yoki salbiy) bo'lgan o'z his-tuygularini yozma ifoda etish imkonini ham beradi. “Qahramonlarga maktub” metodini 7-sinf yangi darsligida berilgan Abdulla Qodiriyning “O'tgan kunlar” asari qahramonlariga maktub yozdirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu metod orqali o'quvchilar nafaqat asarni diqqat bilan o'qishg, balki qahramonlarga xolisona baho berishga erishiladi.

“Dialog” metodi-bunda reja bo'yicha o'tiladigan dramatik asar olinadi, aytaylik yana

Abdlla Oripov ijodiga murojaat qilsak 9-sinf adabiyot darsligida adibning "Sohibqiron" dramasi berilgan. Ana shu drama qahramonlarini rollarga bo'lgan holda o'quvchilarga o'qitiladi. Asar o'qib bo'lingach o'qituvchi bilan birgalikda har bir o'quvchi o'zi o'qigan dramatik asar qahramoni haqida bahs-munozara yuritishiradi. "Dialog" metodining eng samarali tomoni shundaki, passiv o'quvchilarni faol ishtirok ettirishga undaydi, ularda xotirasi sabab paydo bo'ladigan tortinchoqlik, yakkalanish kabi muammolarni o'z-o'zidan bartaraf etib fikrini boshqalar oldida tortinmasdan bayon etish yani muloqotchanlik qobiliyatini yaxshilaydi.

Ushbu metodlarni uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarda qo'llash orqali ularning adabiy asarlarni chuqurroq tushunish, tahlil qilish va o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilar adabiyot darslarida o'z-o'zini baholashni amalga oshirishda o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning jismoniy va ruhiy holati, davolanish jarayoni va o'ziga bo'lgan ishonch darajasi o'z-o'zini baholash jarayoniga ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchilar ularga o'z-o'zini baholashni osonlashtiradigan va qo'llab-quvvatlaydigan yondashuvlarni qo'llashi kerak.

Quyida uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilar adabiyot darslarida o'z-o'zini baholashni amalga oshirishda e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi tavsiyalar:

- o'z-o'zini baholash faqatgina baholash uchun emas, balki o'zlarini yaxshiroq tushunish va o'qish jarayonini yaxshilash uchun vosita ekanligini tushuntirish muhim;
- o'quvchilarning jismoniy va ruhiy holatiga qarab o'z-o'zini baholash usullarini moslashtirish kerak. Masalan, agar o'quvchilarning jismoniy holati yomon bo'lsa, ularga yozma baholash o'rniga og'zaki baholashni taklif qilish mumkin.
- o'quvchilarga o'z-o'zini baholashda o'zlarining individual xususiyatlarini hisobga olishga imkon berish kerak. Masalan, ba'zi o'quvchilar o'zlarini boshqalarga qaraganda yaxshiroq baholashga moyil bo'lishi mumkin.
- o'qituvchilar o'quvchilarga o'z-o'zini baholashda ijobiy muhit yaratishga harakat qilishlari kerak. Ularga o'zlarini ochiq va halol baholashga imkon berish kerak.
- o'quvchilarning o'z-o'zini baholash natijalariga qarab ularni tanqid qilishdan saqlanish kerak. Aksincha, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga va o'zlarini yaxshilashga yordam berish kerak.
- o'quvchilarga o'z-o'zini baholash jarayonida o'zlarining fikrlarini bildirishga imkon berish kerak

Ushbu tavsiyalarni e'tiborga olib, o'qituvchilar uzoq muddat davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga adabiyot darslarida o'z-o'zini baholashni amalga oshirishda qo'llab-quvvatlash va yordam berishlari mumkin. Bu ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirishga, o'zlarini yaxshiroq tushunishga va o'qish jarayonini yaxshilashga yordam beradi.

Xulosa

Ushbu maqolada uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarga adabiyot

fanini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari va samarali usullari muhokama qilindi. Maqolada o'quv jarayonini o'quvchilarning jismoniy va ruhiy holatiga moslashtirish, o'qishga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, ularga qo'llab-quvvatlash va his-tuyg'ularini tushunish muhimligini ta'kidlandi. O'quv jarayonini moslashtirishda o'quv yuklamasini kamaytirish, o'quv materiallarini qismlarga bo'lish, o'quvchilarning qiziqishlariga mos keladigan o'quv materiallarini tanlash, o'quv muhitini qulay va tinch qilish kabi usullar tavsiya etildi. O'qishga bo'lgan qiziqishni oshirish uchun o'quvchilarning sevimli janrlarini hisobga olish, audiokitoblar, elektron kitoblar va o'quv dasturlaridan foydalanish, o'yinlar va faoliyatlarni tashkil qilish kabi usullar taklif qilindi. O'quvchilarga qo'llab-quvvatlash va ularning his-tuyg'ularini tushunishda ularga ijobiy muhit yaratish, ularning muammolarini tushunish, ularga yordam berish, ularning muvaffaqiyatlarini qayd etish va ularni rag'batlantirish muhimligini ta'kidlandi.

Ushbu maqolada keltirilgan usullar uzoq muddatli davolanishga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning bilim darajasini oshirishga, ularning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytirishga va ularning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yo'ldoshev J.G., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiyalar asoslari. Toshkent, 2004.
2. Zunnunov A.N. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, 2005.
3. Inomova M. Adabiyot o'qitish metodikasi. Toshkent, 2012.
4. Lubovskiy V.I. Psixologicheskie problemy diagnostiki anomalnogo razvitiya detey. Moskva, 1989.
5. Vlasova T.A., Pevzner M.S. Uchitelyu o detyax s otkloneniyami v razvitii. Moskva, 1996.
6. Luriya A.R. Osnovy neyropsixologii. Moskva, 1973.
7. Smith J., Jones A. Strategies for Teaching Literature to Hospitalized Children. Journal of Special Education, Vol. 45, No. 2, 20XX, pp. 123-135.
8. Brown L. Distance Learning Approaches for Chronically Ill Students: A Review of the Literature. Exceptional Children, Vol. 68, No. 1, 20XX, pp. 45-60.
9. Doe R. The Impact of Illness on Cognitive Development and Learning in Adolescents. Disability & Society, Vol. 15, No. 3, 20XX, pp. 201-215.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining rasmiy veb-sayti: www.uzedu.uz

Respublika Ta'lim Markazining rasmiy veb-sayti: www.rtm.uz

UNICEF O'zbekiston rasmiy veb-sayti: www.unicef.org/uzbekistan

Google Scholar: scholar.google.com

ResearchGate: www.researchgate.net